

UDK :619:616. 981.45:571.1

QO'ZILAR STREPTOKOKKOZINING DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHDA PREPARATLARNING SAMARADORLIGI

Sheraliev I. D., v.f.f.d.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Tadqiqotlar davomida spontan va eksperimental streptokokkoz bilan kasallangan qo'zilar antibiotiklar bilan davolash samaradorligi olib borilgan. Tajriba davomida jami 125 bosh qo'zilar tanlab olingan. Bunda laboratoriya sharoitida tajribalardan o'tgan 3 ta eng samarali antibiotiklar tanlab olindi. Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqotlar xo'jaliklar sharoitida o'tkazilgan. Tadqiqotlarning eng samarali enrofloksatsin 90 foizni va farmastar-200 esa 87 foiz davolash samaradorligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Mikrobiologiya, qo'zi, streptokokkoz, antibiotik, laboratoriya, xo'jalik, davolash.

Dolzarbli: Bugungi davrda respublikamizda chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklar rivojlanirish, aholining chorvachilikka bo'lgan talabini qondirish, hamda aholini sifatli go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini va chorva bosh sonini oshirish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Qo'ychilik sohasini rivojlantirishda turli infeksiyon va invazion kasalliklar to'sqinlik qilmoqda. Infeksiyon kasalliklardan zararlanish, ulardan kelib kechadigan o'lim darajasining yuqori bo'lishi, kam vaqt ichida infeksiyaning tarqalish darajasi va kasallikni oldini olish hamda qarshi kurashish uchun juda katta mablag' sarflanadi. Jumladan, qo'ychilik bilan shug'illanuvchi fermer xo'jaliklarida asosan, qo'zilar orasida streptokokkoz qo'p uchraydigan kasallik bo'lib, o'tkir holatlarda septitsemiya va surunkali holatlarda-asosan o'pka, bo'g'imlar, oshqozon-ichak traktining jarohatlanishi bilan namoyon bo'ladi. Katta yoshli hayvonlarda endometrit va mastit kuzatiladi.

Antibiotiklarni qo'llashdan oldin agarli diffuz usulda qo'zg'atuvchining sezgirligini aniqlash kerakligi, buning natijasida eng samarali antibiotikni tanlab qo'llanilsa qo'zilar streptokokkoz kasalligini davolash samaradorligi yuqori bo'lishi bo'yicha taklif berganlar.

Material va metodlar Antibiotiklarni samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar, Buxoro viloyati Olot tumanining Xidreyli qishlog'i "Murodbek Ergash" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 120 bosh qo'zilar 60 boshdan 2 guruhga va Buxoro viloyati Olot tumanining Xasanboy qishlog'i "To'lqin" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 75 bosh hamda mikrobiologiya va yosh mollar kasalliklarini o'rganish laboratoriyasidagi mavjud qo'zilar antibiotiklarni davolash samaradorligi o'rganildi.

Tadqiqotlar natijalari: Antibiotiklarni qo'llashdan oldin uni streptokokkozga sezuvchanligi laboratoriya sharoitida o'rganildi. Buning uchun uch xil antibiotiklar tanlandi. Go'sht peptonli agarda (GPA) o'sgan streptokokkozlarni bir kunlik kulturasi, yangi tayyorlangan Petri likopchasidagi qonli agar asosi ozuqa muhiti yuzasiga 1 ml petli bilan surtili va termostatda 20-40 daqiqa quritiladi va antibiotik shimdirilgan qog'izli disklarni ustiga 2 sm oraliq bilan qo'yildi. Antibiotiklar turlari enrofloksatsin, farmastar-200, Penstrep-400 lar ushbu ekmani 16-18 soat 37 °C haroratdagi termostatga qo'yildi.

Natijada enrofloksatsin preparati 20 mm natijani qayd etdi, sezgirligi yuqori ekanligi aniqlandi. Farmastar-200 15 mm natijani tashkil etdi, streptokokkozga sezgirligi past. Penstrep-400 15 mmni tashkil etib, bu xam streptokokkozga sezgirligi past ekanligi aniqlandi.

Natijalarga asoslanib Buxoro viloyatining Olot tumanidagi Xidreyli qishlog'i "Murodbek Ergash" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 120 boshdan 1 va 2 tajriba guruh qo'zilar Farmastar-200 hamda Penstrep-400 qo'llanildi. Mikrobiologiya va yosh mollar kasalliklarini o'rganish laboratoriyasidagi mavjud qo'zilar enrofloksatsin qo'llanildi. Ilmiy amaliy-tadqiqotlar davomida "Murodbek Ergash" chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligidagi 1 guruh qo'zilariga Farmastar-200 dan 0,2 ml 3 kun davomida kuniga bir mahaldan bir

vaqtning uzida, 2 tajriba guruhiga Penstrep-400 0,2 ml miqdorida 3 kun davomida muskul orasiga qo'llanildi. "To'lqin" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida streptokokkoz bilan kasallangan qo'zilar esa enrofloksatsin 0,2 ml mushak ichiga kuniga 2 marta, 3 kun mobaynida qo'llanildi. Davolash davomida qo'zilarining umumiy holati (tana harorati, nafas olish, yurak urish va antibiotiklar yuborilgan joy) tekshirib borildi.

Qo'zilar streptokokkozini davolashda antibiotiklar ta'sirini o'rganish natijalari

1-jadval

Guruhlar va xo'jaliklar nomlari	Qo'zilar bosh soni	Antibiotiklar turi	Ulchov birligi va kuni (ml)	Samaradorligi %		
				tirik	o'ldi	%
I-Tajriba "Murodbek Ergash"	60	Farmastar-200	0,2 ml, 3 kun	54	6	87
II-Tajriba "Murodbek Ergash"	60	Penstrep-400	0,2 ml, 3 kun	51	9	85
III-Tajriba "To'lqin"	75	Enrofloksatsin-50	0,2 ml, 3 kun	72	3	92

1-jadval natijasi tahliliga ko'ra, Buxoro viloyati Olot tumanining Xidreyli qishlog'i "Murodbek Ergash" chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 120 bosh qo'zilarni 2 guruhga 60 boshdan ajratib, 1-tajriba guruhidagi 75 bosh qo'zilarga farmastar-200 antibiotigi bilan 3 kun davomida davolash olib borildi. Davolash davomida 60 bosh qo'zidan 54 bosh sog'lomlashtirildi, 6 boshi streptokokkozdan nobud bo'ldi. Samaradorlik 87 foizni tashkil etdi. 2-tajriba guruhidagi 60 bosh qo'zilarga Penstrep-400 qo'llanilib, samaradorlik o'rtacha 85 foizni tashkil etdi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, qo'zilar streptokokkoz kasalligiga qarshi kurashishda asosan profilaktik chora-tadbirlar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Agarli diffuz usulda antibiotiklarga sezgirlig natijastga ko'ra Farmastar-200, Penstrep-400 15 mmni, Enrofloksatsin-50 antibiotiki 20 mmni tashkil etdi, buning natijasida antibiotiklarni streptokokkozga sezgirligi yuqori ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elmurodov, B. A., Kh, A. S., Navruzov, N. I., & Sheraliyeva, I. D. (2016). Diseases of cubs.
2. Наврузов, Н. И., Пулатов, Ф. С., Султанова, И. Ю., Шералиева, И. Д., Набиева, Н. А., & Актамов, У. Б. (2008). The importance of chitozan suctinat in lamb colibacteriosis. *Scopus: Jundishapur Journal of Microbiology. ISSN, 3645.*
3. Элмуродов, Б. А., Абдалимов, С. Х., Наврузов, Н. И., & Шералиева, И. Д. Ёш хайвонлар касалликлари. *Монография. Самарқанд-2016. "Зарафшон нашриёти.*
4. Sheraliyeva, I. D. (2022). DIPLOCOCCOSIS AND PASTEURELLOSIS OF SHEEP-LAMBS The CASALLIERS. *Conferencea, 85-86.*
5. Шералиева, И. Д., & Абдусатторов, А. А. (2022, April). ЧОРВА ҲАЙВОНЛАРИ ОРАСИДА УЧРАЙДИГАН ДИПЛОКОККОЗ ВА ПАСТЕРЕЛЛЁЗНИ АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ. In *E Conference Zone* (pp. 93-95).
6. Абдусатторов, А., & Шералиева, И. (2022). Меры по выявлению и профилактике бактериальных заболеваний. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 28-32.*
7. Шералиева, И. Д. (2017). ПАТОМОРФОЛОГИЯ ПРИ СМЕШАННЫХ (пастереллёза и диплококкоз) ИНФЕКЦИЯХ ЯГНЯТ. In *СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 103-107).

8. Sheralieva, I. D. Prevention of Mixed Diseases (Pasteurellosis and Diplococcosis) That Occur in Young Animals. *International Journal on Integrated Education*, 3(8), 229-231.
9. Элмуродов, Б., & Муминова, Ш. (2006). Вредное воздействие растения лебеды на организм уток. *in Library*, 3(3), 215-217.
10. Элмуродов, Б., & Абдалимов, С. (2006). Диплококкоз овец и ягнят. *in Library*, 3(3), 25-26.
11. Элмуродов, Б., Курбанов, Р., Япаров, Э., & Абдалимов, С. (2006). Листерииоз овец в Узбекистане. *in Library*, 3(3), 171-172.
12. Элмуродов, Б., Пурди, К., & Ралеих, Р. (2006). Водные патогены присутствуют в сточных водах крупного молочного завода летом и зимой. *in Library*, 1(1), 20-23.
13. Элмуродов, Б. (2005). Болезни кур. *in Library*, 2(2), 32-32.
14. Джураев, О., Элмуродов, Б., & Шокиров, Л. (1996). Гематологические и биохимические изменения, происходящие в организме овец при смешанных инфекционных заболеваниях. *in Library*, 3(3), 2-3.
15. Navruzov, N. I., & Elmurodov, V. A. CALVES AND THE EFFECT ON THE IMMUNE SYSTEM.
16. Purdy, C. W., Raleigh, R., Straus, D., & Elmurodov, V. (2006, September). Water pathogens present in the wastewater flow of a large dairy in the summer and winter. In *Research Workers in Animal Diseases Conference Proceedings* (pp. 20-23).
17. Navruzov, N. I. The role of immunostimulants in the prevention of colibacillosis, salmonellosis and pasteurellosis in calves. *International Journal on Integrated Education*, 3(8), 232-234.
18. Элмуродов, Б., Муминов, Г., & Набиева, Н. (2024). Распространение инфекционных заболеваний среди скота и меры профилактики. *in Library*, 2(2), 155-163.
19. Элмуродов, Б., & Наврузов, Н. (2024). Влияние формалиновой вакцины Гоа против колибактериоза и сальмонеллеза телят, ягнят и поросят на организм телят. *in Library*, 2(2), 73-86.
20. Элмуродов, Б. (2024). Инсектицидное действие препарата Альфа-Шакти против мух и вредителей. *in Library*, 1(1), 250-256.
21. Элмуродов, Б. (2024). Патоморфологические изменения у цыплят, зараженных сальмонеллой пуллором галлиналиум. *in Library*, 2(2).
22. Элмуродов, Б., Наврузов, Н., & Киямова, З. (2024). Патоморфологические изменения у цыплят, зараженных *Salmonella pullorum Gallinarium*. *in Library*, 1(1), 141-151.
23. Элмуродов, Б., & Набиева, Н. (2024). Эффективность антибиотиков при лечении пастереллеза кроликов. *in Library*, 1(1), 134-140.
24. Элмуродов, Б., & Абдураимова, Г. (2024). Профилактика и лечение отравления овец гелиотропом. *in Library*, 1(1), 243-249.
25. Элмуродов, Б., & Киямова, З. (2024). Патоморфологическая дифференциальная диагностика пуллороза и стрептококковых заболеваний птицы. *in Library*, 1(1), 79-84.
26. Elmurodov, V. A. (2024). PATHOLOGICAL CHANGES IN CHICKS INFECTED WITH *SALMONELLA PULLORUM GALLINARIUM*. *Ustozlar uchun*, 57(2), 398-413.
27. Набиева, Н., & Элмуродов, Б. А. (2024). ЧОРВАЧИЛИКДА ИНФЕКЦИОН КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. *World scientific research journal*, 26(2), 155-163.
28. Элмуродов, Б., Набиева, Н., & Наврузов, Н. (2023). Коммерческие вакцины для профилактики пастереллеза кроликов и других животных. *in Library*, 4(4), 322-324.
29. Элмуродов, Б., & Абдураимова, Г. (2023). Виды гелиотропных растений и отравление (гелиотропотоксикоз). *in Library*, 3(3), 30-31.
30. Элмуродов, Б., & Султанова, И. (2023). Гематологические показатели, патологоанатомические изменения и дифференциальный диагноз при микст-инфекции колибактериозом и сальмонеллезом у кроликов. *in Library*, 3(3), 6-7.